



Kadirova Zulayxo Abduxalimovna,
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori*

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA OSIYO TAJRIBASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada migrantlar toifalarga bo'lib tahlil qilingan, ayol mehnat migrantlari to'g'risidagi xalqaro kelishuvlar ko'rib chiqilgan. Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston uchun ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В этой статье анализируются мигранты по категориям в регионе, а также рассматриваются международные соглашения о трудящихся женщинах-мигрантах. На основе изучения опыта зарубежных стран по регулированию женской трудовой миграции разработаны научные предложения и рекомендации для Узбекистана.*

Annotation. *This article analyzes migrants by category in the region and also examines international agreements on women migrant workers. Based on the study of the experience of foreign countries in regulating female labor migration, scientific proposals and recommendations for Uzbekistan have been developed.*

Tayanch so'zlar: *migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro tashkilotlar, mehnat migratsiyasini tartibga solish nazariyalari, xalqaro konvensiyalar.*

Ключевые слова: *миграция, международная трудовая миграция, международные организации, теории регулирования трудовой миграции, международные конвенции.*

Keywords: *migration, international labor migration, international organizations, theories of labor migration regulation, international conventions.*

Kirish. 1990-yillardan soʻng Janubi Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida nafaqat migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, balki ularning feminizatsiyalashuvi ham rivojlanib ketdi. Shu bilan birga, soʻnggi 20 yilda mintaqadagi erkak migrantlarga nisbatan vaqtinchalik mehnat migratsiyasini boshdan kechirayotgan hamda noiqtisodiy omil sabab uzoq muddatli koʻchib oʻtayotgan ayollarning ulushi orta boshladi.

1980–1990-yillarda iqtisodiy bum mintaqa ichidagi qisqa muddatli shartnoma asosida ishlash imkoniyatini beruvchi bandlik imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu sababli ham misli koʻrilmagan darajadagi iqtisodiy oʻsishga yuz tutgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan, Singapur kabi sobiq donor mamlakatlar, keyinchalik esa Bruney, Malayziya, Tayland kabi mamlakatlar yirik ishchi kuchi importyorlariga, Filippin, Indoneziya, Bangladesh, Hindiston va Nepal kabi mamlakatlar esa yirik ishchi kuchi donorlariga aylana boshladi. Mintaqa ichidagi yuqori surʼatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon migratsiya oqimlari xizmat koʻrsatish va uy xizmati kabi sohalarining aynan feminizatsiyalashuvi xarakterlana boshladi.

Asosiy qism. Mintaqada migrantlar 3 xil toifaga ajratiladi:

1. Yuqori malakali yoki roʻyxatdan oʻtgan professionallar.
2. Shartnoma asosida ishlaydigan malakasiz ishchilar.
3. Noqonuniy ishlovchi malakasiz ishchilar.

Mintaqa ichidagi ayollar migratsiyasiga koʻpincha malakasiz migratsiya xos boʻlib, unda koʻpincha ayol mehnat migrantining taʼlim darajasiga mos boʻlmagan, ammo ayol migrantlar bajarishi mumkin boʻlgan ishlar bilan bandlik xususiyatiga ega. Mintaqada qonuniy migratsiya shartnoma asosida ishlovchi uy xizmatchilari uchun cheklangan boʻlib, bunda ayol migrantlar ikki yillik shartnoma asosida ish beruvchiga bogʻlanib qoladi hamda muammo yuzaga kelgan paytda migrantlar ish beruvchini almashtirish huquqiga ega boʻlmaydi. Shu sababli ham bunday sharoitda ular uyga qaytishi yoki ish beruvchi bilan ishlashni xohlamasa, mamlakatda noqonuniy mavqeda qolishi mumkin boʻladi.

Mehnat migrantlari koʻpincha turli xil qiyinchiliklarga duch keladilar, ammo ayol migrantlar ularning marjinal mavqeyi va bandlik sohasida kelib chiqqan holda erkaklarga nisbatan ancha himoyaga muhtoj hisoblanadilar. Aksariyat Osiyo mamlakatlarida patriarxal rejim va gender notenglik jarayonlari keskin boʻlgani uchun ayol migrantlar mehnat migratsiyasini amalga oshirishda oila tomonidan qoʻllab-quvvatlanish yoki sukut saqlash bilan rozilik koʻrsatish kabi muammolarga koʻproq uchraydilar. Bunday cheklovlar ayol migrantlarning noqonuniy migratsiyani amalga

Mehnat migrantlari koʻpincha turli xil qiyinchiliklarga duch keladilar, ammo ayol migrantlar ularning marjinal mavqeyi va bandlik sohasida kelib chiqqan holda erkaklarga nisbatan ancha himoyaga muhtoj hisoblanadilar. Aksariyat Osiyo mamlakatlarida patriarxal rejim va gender notenglik jarayonlari keskin boʻlgani uchun ayol migrantlar mehnat migratsiyasini amalga oshirishda oila tomonidan qoʻllab-quvvatlanish yoki sukut saqlash bilan rozilik koʻrsatish kabi muammolarga koʻproq uchraydilar.

***Mehnat
migratsiyasidan
qaytib kelgan
ayollarning oila va
milliy iqtisodiyotga
qo‘shgan ma‘naviy
va moliyaviy
hissalariga
qaramasdan, ular
jamiyat tomonidan
turli gumonlar
ostida qabul
qilinadi.***

oshirishiga undash yoki odam savdosi qurboniga aylanishiga olib kelmoqda. Retsipiyent mamlakatda esa ayol migrantlarning noqulay ishlash sharoitlariga tushib qolish, jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboniga aylanish, kelishilgan kasb bilan shug‘ullanmaslik, ish joyidan hatlab chiqishga ruxsat berilmasligi, uzaytirilgan ish soatlari, telefondan foydalanishning taqiqlanishi, dam olish kunlariga ega bo‘lmaslik kabi muammolar ayol migrantlarning ish beruvchilardan qochib ketishiga va mamlakatda norasmiy yoki noqonuniy mavqeda qolishiga zamin yaratadi. Shuningdek, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan ayollarning oila va milliy iqtisodiyotga qo‘shgan ma‘naviy va moliyaviy hissalariga qaramasdan, ular jamiyat tomonidan turli gumonlar ostida qabul qilinadi. Hattoki ular qaytguniga qadar oilalarining ajralish holatigacha borishi bilan bog‘liq misollar ham kuzatiladi. Ayol migrantlarning turli darajadagi jismoniy yoki ruhiy jarohatlar bilan qaytishi, xorijda orttirgan bilm va ko‘nikmalarini vatanida qo‘llay olmasligi bilan bog‘liq mehnat bozoriga integratsiyalashuv muammolari ham uchrab turadi.

Mintaqadagi ishchi kuchi qabul qiluvchi mamlakatlarda migratsiya siyosati 3 xil yo‘nalishda amalga oshiriladi. Bular:

1. Mehnat migratsiyasining hajmini cheklash.
2. Migratsiya davomiyliyini qisqartirish.
3. Integratsiyalashuvni cheklash.

Retsipiyent mamlakatlarda mehnat migrantlariga bo‘lgan talabning ortishi hukumatlar tomonidan ayol migrantlarni himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinishiga turtki bo‘lgan. Masalan, Quvayt hukumati uy xizmatchisi sifatida ishlovchi ayollarni himoya qilish, xususan, ish beruvchilarga ularning sayohat hujjatlarini ushlab turishni taqiqlash hamda ma‘lum bir vaziyatlar yuzaga kelganda ish beruvchini almashtirishga ruxsat berish kabi vazirlik qarorlarini qabul qilgan (International Human Rights Clinic, 2013). Bunday choralar Gonkongning bandlik to‘g‘risidagi qarorlarida ham uchraydi.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish mexanizmlari haqida gapirilganda, ayol mehnat migrantlariga tegishli ikkitomonlama kelishuvlarning ahamiyati katta. Bularga Hindiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi uy xizmatchilari to‘g‘risidagi kelishuv, Iordaniyaning mehnat qonunchiligiga muvofiq bangladeshlik uy xizmatchilarining huquqlari va ularni himoya qilish to‘g‘risidagi Indoneziya va Bangladesh o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv memorandum, Filippin va Germaniya hamda Yaponiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi tibbiyot xodimlarini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risidagi o‘zaro anglashuv memorandumlarini misol qilish mumkin.

Ikki tomonlama kelishuvlarda ham gender masalalariga e'tibor qaratgan holda Ispaniya va Mavritaniya misolida antidiskriminatsiya jihatlari, Kanada–Kolumbiya, Gonduras–Mavrikiy misolidagi erkaklar va ayollarning tengligi; Argentina–Boliviya, Italiya–Albaniya misolidagi migrantlarning turmush o'rtoqlari, farzandalari va ota-onalarining huquq va imkoniyatlari; Baxrayn–Shri-Lanka misolida esa uy xizmatchilari kabi himoyaga muhtoj kategoriyadagi ishchilarni himoya qilishga alohida ahamiyat qaratishi jihatlari e'tiborga loyiq.

Donor mamlakat sifatida Bangladesh hukumati tomonidan 2010–2020-yillarga mo'ljallangan strategik rejaga muvofiq mehnat migrantlarini, xususan, ayollarni ham ichki mehnat bozori, ham xalqaro mehnat bozoriga mos bo'lgan ko'nikmalarga o'qitish bilan bog'liq qarorlar qabul qilingan. Shuningdek, Shri-Lanka va Italiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli bo'lgan yosh bolalar hamda qariyalar parvarishi bo'yicha malaka oshirish kurslari ham faoliyat ko'rsatadi.

Shu o'rinda, migrantlar yuborilayotgan retsiپیent mamlakatlarda ayol mehnat migrantlarini huquqiy jihatdan adekvat himoya qilish tizimining mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Masalan, Xitoy va Iordaniya kabi mamlakatlardagi bandlik to'g'risidagi farmon barcha migrantlar, uy xizmatchilari va hattoki iqtisodiyotning norasmiy sohasida band bo'lganlar uchun ham taalluqli. Shuningdek, Iordaniya, Gonkong, Xitoy va Singapur kabi retsiپیent mamlakatlarda qiyin ahvolga tushib qolgan ayol migrantlarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari, ular uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etuvchi koll-markazlar va kompensatsiya dasturlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. BAAda esa odam savdosi va tazyiqqa uchragan ayol migrantlarga tibbiy, psixologik, yuridik va professional yordam ko'rsatish, ayol migrantlarni munosib mehnat sharoitlari hamda quyi malakali migrantlarni majburiy tibbiy sug'urta bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Filippin, Xitoy va Iordaniya kabi mamlakatlar o'rtasida mehnat migrantlari, xususan, uy xizmatchilari uchun standart mehnat shartnomalarini tuzish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ish beruvchi va ishga yollanuvchining huquq va majburiyatlaridan tashqari davlat organlari tomonidan standartlarni tartibga solish, tekshirish va ularning amal qilinishini ta'minlash kabilar o'rin olgan. Masalan, uy xizmatchilari uchun standart shartnomalar immigratsiya maqsadidagi va sudlardagi mehnat muzokaralari uchun yagona mehnat shartnomasi hisoblanadi.

Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solishda Nepal ham katta tajribaga ega. Nepalning davlat siyosati va normativ-huquqiy bazasi mamlakatdagi potensial migrantlarning xorijda xavfsiz va munosib

Migrantlar yuborilayotgan retsiپیent mamlakatlarda ayol mehnat migrantlarini huquqiy jihatdan adekvat himoya qilish tizimining mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

***Xorijda ishlash
bo'yicha davlat
siyosatining muhim
yo'nalishlaridan
biri bu aynan
ayol va qiz bola
migrantlar
masalasi bo'lib,
bunda ularning
noqonuniy
kanallar orqali
migratsiyasi,
ma'lumotlarning
mavjud emasligi
hamda uy
xizmatchilari
huquqlarining
buzilishi va himoya
qilinmasligi kabi
muammolarni
hal qilishga
yo'naltirilgan.***

ish bilan ta'minlanish istiqboliga yordam berishga yo'naltirilgan. 1994–1999-yillarda mamlakatdan ishlash maqsadida chiqib ketuvchi migrantlar sonining 7 barobarga oshishi 1999-yilga kelib, bandlik sohasidagi milliy siyosatda mamlakat fuqarolarining xorijda ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini osonlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirildi. Hukumatning xorijda ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunida, eng avvalo, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilgan [1]:

1. Bolalar migratsiyasining oldini olish.
2. Jinsidan qat'iy nazar potensial migrantlar uchun teng va adolatli muomalani ta'minlash.
3. Xorijda ishlash maqsadida bo'lgan fuqarolarning pasportlarini olib qo'yishning oldini olish.

Shuningdek, bu borada hukumat tomonidan XMTning "Ayollarga qarshi har qanday diskriminatsiyaga barham berish" to'g'risidagi hamda "Bolalar mehnatining har qanday eng yomon ko'rinishlari to'g'risida"gi konvensiyalari ratifikatsiya qilingan. 2007-yilda qabul qilingan "Xorijda ishlash to'g'risida"gi qonunga asoslangan holda, xorijda ishlash xohishida bo'lgan yosh migrantlar sonini hisobga olib, mamlakatdagi ish bilan bandlik siyosati "Xorijda ishlashning iqtisodiy va noiqtisodiy foydasi hisobiga barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan qashshoqlikni kamaytirish uchun xorijda xavfsiz, uyushgan, hurmatli va ishonchli bandlikni ta'minlashga" qaratildi. Bu borada davlat siyosati quyidagilarga qaratildi:

1. Xorijda ish bilan ta'minlanish jarayonlarining har bir bosqichini sodda, shaffof, uyushgan va xavfsiz bo'lishini ta'minlash.
2. Ayol mehnat migrantlarining muammolarini hal qilish va migratsiya siklining barcha bosqichlarida ularning huquqlarini ta'minlash.
3. Xorijda ish bilan ta'minlanishni boshqarish maqsadida mahalliy, milliy va xalqaro resurslarni ishga solish va tarmoqlararo hamkorlikni kengaytirish.

Shuningdek, xorijda ishlash bo'yicha davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bu aynan ayol va qiz bola migrantlar masalasi bo'lib, bunda ularning noqonuniy kanallar orqali migratsiyasi, ma'lumotlarning mavjud emasligi hamda uy xizmatchilari huquqlarining buzilishi va himoya qilinmasligi kabi muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan.

Qonunchilikdan tashqari, ayol migrantlar muammosini hal qilishga qaratilgan boshqa omillar ham mavjud. Xususan, Nepal va nepallik migrantlarni ishga yollovchi retsiptiyent mamlakatlar o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumlari imzolangan. Mazkur ikki tomonlama

kelishuvlarda migrantlarning minimal ish haqini himoya qilish va ularni munosib mehnat sharoiti bilan ta'minlash, kelishuvlarda talabga nomuvofiq minimal ish haqi belgilanishining oldini olishga qaratilgan. Bunday ikki tomonlama kelishuvlarga Hindiston va Nepal o'rtasidagi "Tinchlik va do'stlik to'g'risida"gi kelishuv misol bo'ladi. Unga ko'ra, nepallik ishchilar ham, hindistonlik ishchilar ham mamlakat chegarasini kesib o'tish, u yerda ishlash va ularga nisbatan muomalada bo'lishda mamlakat fuqarolari bilan teng bo'lishlari lozim sanalib, ikkala mamlakat migrantlari ham o'z mamlakat fuqarolari kabi yashash, mulkka ega bo'lish, savdoda ishtirok etish va ko'chib yurish imkoniga egalar.

Shuningdek, mamlakatda aynan uy xizmatchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan 30–35 kunga mo'ljallangan 210 soatlik kurslar tashkil etilgan. Bu kursdan o'tish Yaqin Sharq mintaqasiga ishlash uchun ketayotgan barcha ayol migrantlar uchun majburiydir. Ketish oldi kurslarida retsiptent mamlakatning tili, qonunlari, repatriatsiya va moliyaviy savodxonlik bilan bir qatorda retsiptent mamlakatdagi xorijliklar to'g'risidagi qonun, mehnat muhofazasi va xavfsiz sayohatni amalga oshirishi kabilar o'rin olgan.

Mehnat migratsiyasidan keladigan ijobiy jihatdan ma'naviy va moliyaviy foydani, ammo, shu bilan birga, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni hisobga olgan holda gender masalalari jihatidan neytral holatda bo'lgan mehnat migratsiyasi sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlarining gender masalalariga chuqurroq e'tibor qaratish ham muhimdir. Bu borada Filippin hukumati tomonidan mehnat migrantlari va xorijdagi filippinliklar to'g'risidagi qonunga muvofiq, retsiptent mamlakatlardan sertifikatlashtirish asosida migrantlarni himoya qilinishini kafolatlashini, noqonuniy ishga yollash uchun jazolashni, ko'nikmalarni o'rganishga qaratilgan dasturlardan migrantlarning foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishini, yollanma ishchilarning minimal xarajatlar uchun mablag'ga hamda tibbiy va hayot sug'urtasiga ega bo'lishlarini talab qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, ba'zi mamlakatlarda ayol migrantlar erkaklarga o'z vatanlariga ko'proq pul o'tkazmalarini amalga oshiradilar. Shu sababdan ham ularning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ularning moliyaviy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan kurslar ularning topgan daromadlarini to'g'ri sarflashga va mamlakatga qaytgach ularning reintegratsiyalashuvini osonlashtirishga xizmat qiladi. Bu borada Filippinda faoliyat ko'rsatayotgan bunday kurslar migrantlar uchun pul o'tkazmalari hamda ketish oldidan bank hisoblarini ochish va ulardan to'g'ri foydalanish mavzularini qamrab olgani misol bo'la oladi.

Mehnat migratsiyasidan keladigan ijobiy jihatdan ma'naviy va moliyaviy foydani, ammo, shu bilan birga, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni hisobga olgan holda gender masalalari jihatidan neytral holatda bo'lgan mehnat migratsiyasi sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlarining gender masalalariga chuqurroq e'tibor qaratish ham muhimdir.

Ayol mehnat migrantlari to'g'risidagi xalqaro kelishuvlar

“Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolarining huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi xalqaro konvensiya (1990-y.)	– Konvensiyaga muvofiq ayol migrantlarni alohida ajratmagan holda barcha mehnat migrantlarining donor mamlakat fuqarolari bilan teng bo’lgan mehnat qilish huquqlarga ega bo’lishlarini ta’minlash; – hayotning noinsoniy sharoitlarini, jismoniy va jinsiy zo’ravonlikni, tahqirlash va majburiy mehnatni ta’qiqlash; – migrantlarning fikrlash, so’z va e’tiqod hamda sudga murojaat qilish erkinligini kafolatlash.
“Ayollarga nisbatan har qanday zo’ravonlikni tugatish to’g’risida”gi xalqaro konvensiya (1979-y.)	– ayollarga nisbatan diskriminatsiyani taqiqlash, ayollarning ish bilan bandligi, munosib mehnat qilish sharoiti va ijtimoiy ta’minoti kabi huquqlarini ta’minlash; – 26-sonli Tavsiyalar: ayol mehnat migrantlarining gender tengligi, huquqiy himoya hamda cheklovchi va diskriminatsiyadan voz kechish siyosatini ishlab chiqish, ularning sog’liqni saqlash, oila va jamiyatga qayta moslashish imkoniyatlariga ega bo’lishlarini ta’minlashga yo’naltirilish.
XMTning “Uy xizmatchilarining munosib mehnat to’g’risida”gi 189-sonli Konvensiyasi (2011-y.)	– uy xizmatchi migrantlarning mehnat shartnomalariga mamlakatni tark etish oldidan ega bo’lish zaruratini talab qiladi; – uy xizmatchilarini yollovchi agentliklarning yo’riqnomalari va ijro mexanizmlarini qabul qilishni talab qilish; – uy xizmatchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini ta’minlash.
“Mehnat migrantlari to’g’risida”gi XMTning 143- konvensiyasi (qo’shimcha qoidalar) (1975-y.)	– hukumatlardan noqonuniy shaklda faoliyat ko’rsatayotgan, tranzitni amalga oshirayotgan, ko’p tomonlama va ikki tomonlama kelishuvlarga hamda milliy qonunchilikka xilof bo’lgan sharoitlarda yashayotgan va ishlayotgan migrantlarni aniqlash hamda ularning oldini oluchi chora-tadbirlarni qo’llashni talab qilish.
“Mehnat migratsiyasi to’g’risida”gi XMTning 97-sonli konvensiyasi (1949-y.)	– jinsini diskriminatsiya qilmagan holda migrantlarni ishhaqi bilan ta’minlash, kasaba uyushmalariga a’zo qilish va sud jarayonlarida tenglikni ta’minlash bo’yicha qonuniy qoidalarga amal qilish majburiyatini qo’llash.

Shuningdek, mintaqada “Work in Freedom” – “Erkinlikda ishlash” nomli dastur amalga oshirilgan. U adolatli, xavfsiz va munosib mehnat qilishni tashkil etish va Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Nepal) donor mamlakatlarida hamda Iordaniya, Livan va BAA kabi retsiptent mamlakatlarda ayollar va qizlar savdosining oldini olishga qaratilgan. Uning maqsadi-mehnat migrantlarini adolatli ishga yollanishini ta’minlash, retsiptent mamlakatlarda fabrika va uy xizmatchilari uchun ish o’rinlarini tashkil etish hamda ularni huquqiy va siyosiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan. Mazkur dastur ayol migrantlar va qizlarning mehnat migratsiyasi jarayonlarida ko’proq huquq va imkoniyatlarga ega bo’lishini ta’minlashga yordam beradi.

Shuningdek, ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solishda mintaqadagi donor va retsiptentlarning “Mehnat migrantlari va ularning

oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (1990-y.), "Ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlikni tugatish to'g'risida"gi (1979-y.) xalqaro konvensiyalarni imzolaganliklari hamda "Ayol mehnat migrantlari to'g'risidagi" 26-sonli Tavsiyalarga amal qilishlari muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, XMTning 189, 143 va 97-sonli konvensiyalarida ham ayol mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha asosiy tamoyillar o'rin olgan.

Shu bilan birga, ayol mehnat migrantlariga tegishli bo'lgan yo'nalishlarda hamkorlik qilish bo'yicha ham bir qator mintaqalararo va mintaqaviy forumlar hamda konsultativ mexanizmlar faoliyat ko'rsatadi.

Kolombo jarayonlari	– uy xizmatchilari, odam savdosi va jinsiy xizmat ishchilari masalasi muhokama qilingan; – mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish hamda ularni rag'batlantirish; ularning farovonligini va mavqeyini oshirish; himoyaga muhtoj, xususan, ayollar, uy xizmatchilari va past mamlakali hamda quyi ishhaqiga ega ishchilarning alohida ehtiyojlarini qondirish muhokama qilingan.
Abu-Dabi dialogi	– mintaqaviy hamkorlikning 2021-yildan boshlab yo'nalishlari to'g'ridan to'g'ri ayollarning ish bilan ta'minlanishi va malaka oshirishi, ularni ishga yollash jarayonlarini takomillashtirish, migrantlarning xorijda ishga yollanish borasidagi adaptatsiya jarayonlarini yengillashtirish hamda mehnat migrantlarining muammolariga tezkor munosabat bildirish bilan bog'liq choralarni qamrab oladi.
Osiyo-YI dialogi	– noqonuniy migratsiya, ishga yollashning normativ-huquqiy asoslari va yetakchi tajribaga ega bo'lish imkoniyatlari, yuqori malakalilar migratsiyasi, ko'nikmalarni sertifikatlashtirish va tan olish mexanizmlari, migratsiya monitoringi, ishga yollash etikasi va xususiy sektorning roli kabi muammolar muhokamasi.
BMTning migratsiya va taraqqiyot bo'yicha yuqori darajali dialogi	– barcha migrantlarning inson huquqlarini himoya qilish; migrantlarni noqonuniy olib o'tish va odam savdosining oldini olish; ularning yordamga muhtojlik, ayollar va bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish muammolarini hal qilish; – donor, tanzit va retsiyent mamlakatlarda tizimlilik va javobgarlikni rag'batlantirishga yo'naltirilgan deklaratsiya, shuningdek, Bosh Assambleya tomonidan xalqaro migratsiya va mobillikning xavfsiz va shaffof yo'nalishlarini qabul qilish.
Migratsiya va taraqqiyot bo'yicha global forum	– inson huquqlari va gender muammosiga urg'u berilib, hukumatlarni kelajakda o'z siyosatiga yaxshiroq integratsiyalashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi; – tavsiyalar va taklif etilgan faoliyatlar gender rivojlanish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, gender bilan bog'liq ma'lumotlarni jamlash hamda mehnat migrantlarini himoya qilish, ularning himoyasi bo'yicha yetakchi tajribalar majmuasini ishlab chiqish yuzasidan qonunchilik, siyosat va amaliyotni o'zida jamlagan.

Ayol mehnat migrantlari uchun ketish oldi tayyorlov kurslarida qabul qiluvchi mamlakatda ishlash sharoitlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari, migrantlar marginalizatsiyasi, odam savdosi va tazyiqqa uchrashi mumkin bo'lgan holatlarning yuzaga kelish imkoniyatlari, noqonuniy migratsiya oqibatlari, migrantlarning mamlakatdagi huquq va burchlari, tranzit mamlakatlarda yordam olish imkoniyatlari, konsullik xizmatlari, pul o'tkazmalarini optimallashtirish hamda vatanga qaytganda reintegratsiyalashuv jarayonlarini yengillashtirish haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish

Xulosa va tavsiyalar. Yuqorida ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston uchun quyidagilarni inobatga olishni tavsiya etish mumkin:

- hukumat tomonidan xorijda ishlash maqsadida bo'lgan ayol migrantlar, xususan, uy xizmatchilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy va tizimli rejalarni ishlab chiqish;
- retsiptiyent mamlakat bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ayol mehnat migrantlari uchun ketish oldi tayyorlov kurslarida qabul qiluvchi mamlakatda ishlash sharoitlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari, migrantlar marginalizatsiyasi, odam savdosi va tazyiqqa uchrashi mumkin bo'lgan holatlarning yuzaga kelish imkoniyatlari, noqonuniy migratsiya oqibatlari, migrantlarning mamlakatdagi huquq va burchlari, tranzit mamlakatlarda yordam olish imkoniyatlari, konsullik xizmatlari, pul o'tkazmalarini optimallashtirish hamda vatanga qaytganda reintegratsiyalashuv jarayonlarini yengillashtirish haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish;
- xorijda mehnat qilayotgan ayollarning oilalari bilan hamda ish o'rnidagi hamkasblari bilan muloqotda bo'lish, ijtimoiy ta'minlanish, madaniy va diniy marosimlariga amal qila olish, sug'urta va bank xizmatlaridan foydalanish, insofsiz ish beruvchilar qo'lida tazyiqqa uchrashning oldini maqsadida mamlakatda qolish ruxsatnomasi bor muddatda ish o'rnini almashtira olish imkoniyatlarini yaratish;
- hamkor xorij mamlakatlaridagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi yagona va samarali tizimni ishlab chiqish;
- xorijdagi bo'sh ish o'rinlarini, ayniqsa, ayol migrantlar uchun vakansiyalarni taklif etuvchi xususiy bandlik agentliklari faoliyatini davlat tomonidan qat'iy nazorat qilish;
- mehnat migranti mamlakatni tark etgunga qadar mehnat shartnomasiga ega bo'lishiga erishish;
- xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun konsullik va elchixonalaridagi mehnat attashelarining faoliyatini takomillashtirish;
- mehnat migratsiyasidan qaytayotgan ayollarning orttirgan bilim va ko'nikmalari ularning kasbiy rivojlanishi va umuman, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi uchun sarflanish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularning reintegratsiyalashuviga yordam berish;
- retsiptiyent mamlakatlar bilan ayollar mehnat migratsiyasiga doir ikki tomonlama kelishuvlarga erishish;
- BMT va XMTning migrantlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyalarni ratifikatsiya qilish hamda ularni ratifikatsiya qilgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьева О.Д. Миграция населения. Вып. 6: Миграционная политика. – Москва: Минфедерации России, 2001. – С. 8.
2. Бобылев В. Миграционная политика (сущность, структурное строение, основные типы) // Власть. №6. 2009. – С. 61.
3. Рыбаковский Л.Л. Миграционная политика России: теория и практика // Современные проблемы миграции в России: материалы общероссийской научной конференции (11–13 ноября 2003 г.). – Москва: 2003. – С. 36.
4. Рязанцев С.В. Материалы международной конференции. Политика народонаселения: настоящее и будущее. – Москва: МАКС Пресс, 2005. – С. 365.
5. Прудникова Т.А. Егорова С.А., Акимова С.А. Правовые и организационные особенности миграционной политики в ряде зарубежных стран. – Москва: Юнита-Дана: Закон и право, 2013. – С. 10.
6. Giugni M., Passy F. Dialogues on migration policy. Oxford: Lexington Books, a division of Rowman & Littlefield, 2006. – С. 21.
7. Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви / Монография. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2016. – 62 бет.
8. Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида халқаро меҳнат бозоридаги жараёнларнинг тартибга солиниши. // Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. №4. 2015. – Б. 52-61.
9. Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (N 97). Принята на 32-й сессии МКТ 01.07.1949 г., вступила в силу 22.01.1952 г. www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-ed_norm/normes/documents/normativeinstrument/wcms_c097_ru.htm
10. Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975 (N 143). Convention concerning Migrations in Abusive Conditions and the Promotion of Equality of Opportunity and Treatment of Migrant Workers. Принята на 60-й сессии МКТ 24.06.1975 г., вступила в силу 09.12.1978 г. - www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/ed_norm/normes/documents/normativeinstrument/wcms_c143_ru.html
11. Migrant women workers and overt migration policies in Nepal: A law and policy baseline study / International Labour Office, Fundamental Principles and Rights at Work Branch (FUNDAMENTALS). Geneva: ILO, 2017. – P.3.